

**KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA INGLIZ TILIDAGI LEKSIK  
KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION DIDAKTIK  
VOSITALAR**

**Akbarova Dildora Rustamovna**

Namangan davlat pedogogika instituti “O‘zbek va xorijiy tillar “  
kafedra 1- kurs doktoranti

**Elektron pochta manzil :** [dildoraakbarova@namspi.uz](mailto:dildoraakbarova@namspi.uz)

Tel +998975808611 ORCID: 009 005 6221 3874

Namangan davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar kefedra 1- kurs o‘quvchisi

**Azimov Samandar Murodjon o‘g‘li**

*E-mail:* [azimovsamandar@196gmail.com](mailto:azimovsamandar@196gmail.com)

**Telefon:** +998942422220

**Annotatsiya:** Maqola kichik yoshdagi o‘quvchilarda ingliz tili leksikasi rivojida innovatsion didaktik vositalarning - interaktiv o‘yinlar, ko‘rgazmali materiallar va musiqa terapiyasining - rolini o‘rganadi, ularning nutqiy ko‘nikmalar va motivatsiyaga ta’siri tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** leksik kompetensiya, ingliz tili, boshlang‘ich ta’lim, innovatsion didaktik vositalar, lug‘at boyligi, interaktiv metodlar, musiqa terapiyasi.

**Akbarova Dildora Rustamovna**

Namangan State Pedagogical Institute (English language)

1st year researcher of “Uzbek and Foreign languages” department

[dildoraakbarova@namspi.uz](mailto:dildoraakbarova@namspi.uz)

Tel +998975808611 ORCID: 009 005 6221 3874

Namangan State Pedagogical Institute

Bachelor student of the Foreign Languages Department

**Azimov Samandar Murodjon ugli**

*E-mail:* [azimovsamandar196@gmail.com](mailto:azimovsamandar196@gmail.com)

**Phone:** +998942422220

**Abstract:** The article examines the role of innovative didactic tools - interactive games, visual materials, and music therapy - in developing English lexical skills in young learners, analyzing their impact on speech abilities and motivation.

**Keywords:** lexical competence, English language, primary education, innovative didactic tools, vocabulary development, interactive methods, music therapy.

**Акбарова Дилдора Рустамовна**

1 курс докторант Наманганский государственный педагогический институт кафедра “Узбекского и иностранных языков”.

[dildoraakbarova@namspi.uz](mailto:dildoraakbarova@namspi.uz)

Tel +998975808611 ORCID: 009 005 6221 3874

Наманганский государственный педагогический института

Студент бакалавриата кафедры иностранных языков

**Азимов Самандар Муроджон угли**

E-mail: [azimovsamandar196@gmail.com](mailto:azimovsamandar196@gmail.com)

Тел: +998942422220

**Аннотация:** Статья изучает роль инновационных дидактических средств интерактивных игр, наглядных материалов и музыкальной терапии - в развитии лексики английского языка у младших школьников, анализируя их влияние на речевые навыки и мотивацию.

**Ключевые слова:** лексическая компетенция, английский язык, начальное образование, инновационные дидактические средства, словарный запас, интерактивные методы, музыкальная терапия.

## KIRISH

Chet tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitish tarixi turli metodik yo‘nalishlar shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq. Turli davrlarda til o‘rgatish jarayoni pedagogik va lingvistik qarashlarning rivojlanishi natijasida turlicha metodlar asosida tashkil etilgan. Dastlab chet tilini o‘qitishda grammatik qoidalar va tarjimaga asoslangan Grammar–Translation Method keng qo‘llanilgan. Ushbu metod XIX asr davomida til o‘rganishning asosiy usullaridan biri hisoblanib, unda o‘quvchilar matnlarni grammatik jihatdan tahlil qilish, yozma tarjima bajarish va grammatik qoidalarni yodlash orqali tilni o‘zlashtirganlar. Masalan, o‘quvchilarga ingliz tilidagi matn berilib, undan yangi so‘zlar ajratib olinadi, grammatik shakllar izohlanadi hamda matn ona tiliga tarjima qilinadi. Bu jarayonda asosiy e‘tibor grammatikani o‘rganishga qaratilib, og‘zaki nutq ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlantirilmagan.

XX asr boshlariga kelib til o‘qitish metodikasida yangi yondashuvlar paydo bo‘la boshladi. Shulardan biri Direct Method bo‘lib, unda tilni o‘rganishda tarjimadan foydalanish imkon qadar kamaytirildi va o‘quvchilarni bevosita o‘rganilayotgan til

muhitiga yaqinlashtirish maqsad qilindi. Ushbu metodga ko‘ra, yangi so‘zlar kontekst orqali tushuntiriladi, grammatik qoidalar esa bevosita misollar yordamida anglatiladi. Masalan, o‘qituvchi “This is a book” yoki “Open the window” kabi sodda gaplar orqali predmetlarni ko‘rsatib, o‘quvchilarda tabiiy nutq ko‘nikmasini shakllantirishga harakat qiladi. Natijada so‘z boyligini kontekst asosida o‘zlashtirish va to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi bosqichda psixologiya hamda struktur lingvistika yutuqlari ta‘sirida Audio-Lingual Method shakllandi. Bu metod asosan tinglab tushunish va takrorlash mashqlari orqali til ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, dialoglar, eshitish mashqlari va nutqiy drilllardan keng foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu metod Ikkinchi jahon urushi davrida harbiy mutaxassislar uchun chet tillarini tez o‘rgatish zarurati tufayli keng qo‘llanila boshlagan. Masalan, o‘quvchilar o‘qituvchi yoki audio yozuv orqali berilgan dialoglarni bir necha marotaba tinglab, keyin ularni takrorlash orqali talaffuz va nutq namunalarini mustahkamlaydilar.

Chet tilini musiqa va uning terapevtik xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirib o‘qitish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning tilni erkin va tabiiy muhitda o‘zlashtirishlariga imkon yaratadilar. An‘anaviy ingliz tili darslarida o‘quvchilar asosan o‘qish, yozish, tinglash va gapirish ko‘nikmalariga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, musiqa terapiyasi elementlarini darslarga qo‘shish talabalarga tilni qo‘shiqlar, ritm va ijodiy ovozli faoliyat orqali chuqurroq va samaraliroq o‘rganish imkonini beradi.<sup>[1]</sup>

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab til o‘qitish metodikasida Communicative Language Teaching (CLT) yondashuvi yetakchi o‘rin egallay boshladi. Ushbu yondashuv tilni faqat grammatik qoidalar tizimi sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida o‘rganishga asoslanadi. Bu metodga ko‘ra, o‘quvchilar tilni amaliy vaziyatlarda qo‘llash orqali o‘zlashtiradilar. Masalan, savol-javoblar, rol o‘yinlari, muhokamalar va guruhli faoliyatlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifodalashga o‘rganadilar. Natijada til o‘rganish jarayoni kommunikativ faoliyat bilan bog‘lanib, nutqiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishda didaktika alohida ahamiyatga ega. Didaktika pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ta‘lim jarayonining mazmuni, tamoyillari va metodlarini o‘rganadi. “Didaktika” atamasi qadimgi yunon tilidagi didaktikos so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘qituvchi” yoki “ta‘lim beruvchi” degan ma‘noni anglatadi. Mazkur tushuncha Yevropa pedagogikasida XVII asrda keng qo‘llanila boshlagan. Didaktika rivojiga mashhur pedagog Yan Amos Komenskiy katta

<sup>1</sup> Akbarova, D. R. (2025). Musiqa terapiyasining ta‘lim va tarbiya berish jarayonlarida tutgan o‘rni. Ta‘lim va taraqqiyot ilmiy-uslubiy jurnali, 2-son, 131-bet. Namangan: NamDPI

hissa qo‘shgan bo‘lib, u o‘zining “Didactica Magna” asarida ta’limni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqqan. Keyinchalik pedagog olim Adolf Disterveg didaktikani pedagogikaning ta’lim nazariyasini o‘rganuvchi mustaqil yo‘nalishi sifatida talqin qilgan.

### **METODOLOGIYA**

Leksik kompetensiya shaxsning ma’lum bir tilda so‘z boyligiga ega bo‘lishi, ularning ma’nosini anglash hamda turli kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Bu tushuncha nafaqat alohida so‘zlarni bilishni, balki so‘z birikmalari, kollokatsiyalar, frazeologik birliklar va idiomatik ifodalarni ham o‘z ichiga oladi. Mazkur kompetensiya o‘quvchilarning muloqot jarayonida o‘z fikrini aniq va ravon ifodalashiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilar “make a decision”, “take a break”, “give advice” kabi kollokatsiyalarni o‘zlashtirish orqali ingliz tilidagi nutqni tabiiyroq shaklda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. [2].

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning til o‘rganish jarayoni ularning yosh va psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ingliz tilidagi leksik kompetensiyani shakllantirishda innovatsion didaktik vositalar orqali yangi so‘z va birliklarni ongli ravishda tanlash va qo‘llash ko‘nikmasi rivojlantiriladi, bunda “gapiruvchi xotirada tayyor turgan so‘zni yoki grammatik birlikni tanlaydi, odatda, ona tili hodisalari xotirada tayyor turadi” va bu holat interferensiya yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin [3].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq obrazli tafakkurga ega bo‘lib, ular ma’lumotni ko‘rgazmali vositalar orqali tezroq qabul qiladi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalar uchun o‘yin faoliyati yetakchi faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ingliz tilini o‘rgatishda yangi leksik birliklarni tushuntirish jarayonida o‘yin elementlari, ko‘rgazmali materiallar va interaktiv mashg‘ulotlardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, o‘qituvchi yangi so‘zlarni rasmlar yoki predmetlar orqali tushuntirsa, o‘quvchilar ularni tezroq eslab qoladi va nutqda qo‘llashga harakat qiladi.

Shu tariqa, kichik yoshdagi o‘quvchilarda ingliz tilidagi leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida didaktik vositalardan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ko‘rgazmali materiallar, o‘yin texnologiyalari hamda

<sup>2</sup> Madrahimova Sh.R. Leksik kompetensiya va uni rivojlantirish usullari (xorijiy tillarni o‘rganish misolida) // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2024. – Vol. 4, №8. – B. 303.

<sup>3</sup> Saydaliyeva M.A. Ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish mazmunining metodik tahlili // NamDU Ilmiy axborotnomasi 2-son. -2025.- 718-722.

multimedia resurslari o'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi, ularning tilni o'zlashtirish jarayonini faollashtiradi hamda ingliz tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Masalan, rasmi kartochkalar (flashcards) yordamida yangi so'zlarni o'rgatish samarali usullardan biri hisoblanadi. O'qituvchi turli predmetlar, hayvonlar yoki kundalik hayotga oid tasvirlarni ko'rsatib, ularning ingliz tilidagi nomini aytadi va o'quvchilardan takrorlashni so'raydi. Bunday vizual yondashuv bolalarning obrazli tafakkuriga mos keladi hamda yangi so'zlarni tezroq eslab qolishiga yordam beradi.

Shuningdek, qo'shiqlar va she'rlar yordamida til o'rgatish kichik yoshdagi o'quvchilar uchun juda samarali usullardan biri hisoblanadi. Ritm va ohang orqali berilgan so'zlar bolalar xotirasida uzoqroq saqlanadi va ularni oson eslab qolishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi sodda bolalar qo'shiqlari yoki qisqa she'rlar orqali ranglar, sonlar, hayvonlar yoki kundalik predmetlarga oid so'zlarni mustahkamlash mumkin.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Chet tilini o'qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Madrahimova Sh.R. o'z ishida leksik kompetensiyaning nazariy asoslari va uni rivojlantirish usullarini tahlil qilib, so'z boyligini kontekst asosida o'rganish hamda kommunikativ mashg'ulotlardan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi.

Dehqanova G.A. boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilining leksik jihatlarini o'rgatishda didaktik vositalarning ahamiyatini o'rganib, rasmi materiallar va didaktik o'yinlar o'quvchilarning yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirishiga yordam berishini ko'rsatadi.

G'aniyeva M. va Mamajonova M. innovatsion metodlar, xususan, interaktiv mashg'ulotlar va multimedia vositalari dars samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi. Saidolimova T. esa ingliz tili lug'atini o'qitishda rolli o'yinlar va interaktiv metodlar o'quvchilarning lug'at boyligini rivojlantirishda samarali ekanligini qayd etadi.

Shuningdek, Mirakhmedova S.E., Usmonaliyeva M. va Eshboyeva Sh. tadqiqotlarida innovatsion texnologiyalar, multimedia va mediatexnologiya vositalari o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishi hamda leksik birliklarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirishi ko'rsatib berilgan. Lutfullayeva U.R. va Mirakhmedova S.E. esa autentik materiallardan foydalanish o'quvchilarning lug'at boyligini rivojlantirishda samarali ekanligini ta'kidlaydi.

**MUHOKAMA**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ingliz tilidagi leksik birliklarni o‘zlashtirish jarayonida vizual va interaktiv didaktik vositalardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘rgazmali materiallar va interaktiv mashg‘ulotlar o‘quvchilarning yangi so‘zlarni tezroq eslab qolishiga hamda ularni turli kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashiga yordam beradi [4]. Bunday vositalar orqali o‘quvchilar yangi leksik birliklarni nafaqat yodlab oladi, balki ularni nutq jarayonida faol ishlatishni ham o‘rganadilar.

Innovatsion o‘qitish metodlari, xususan o‘yinlarga asoslangan ta‘lim, interaktiv texnologiyalar, loyiha asosidagi mashg‘ulotlar hamda raqamli ta‘lim vositalari kichik yoshdagi o‘quvchilarda ingliz tilini samarali o‘rganishga yordam beruvchi muhim pedagogik yondashuvlar hisoblanadi. Bunday metodlar o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi hamda ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [5].

An‘anaviy yondashuvlardan farqli ravishda, zamonaviy pedagogik metodlar o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb etishga qaratilgan. Xususan, topshiriqqa yo‘naltirilgan o‘rganish (task-based learning), gamifikatsiya, interaktiv texnologiyalar hamda loyiha asosidagi faoliyatlar yosh o‘quvchilarning lug‘at boyligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Bu metodlar nafaqat yangi so‘zlarni eslab qolish, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini ham yaratadi.

Masalan, topshiriqqa yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarga ma‘lum bir vazifa beriladi. “Describe your favourite animal” yoki “Talk about your school bag” kabi topshiriqlar orqali o‘quvchilar ingliz tilida o‘z fikrini sodda gaplar yordamida ifodalaydi. Gamifikatsiya elementlari qo‘llanganda esa o‘quv jarayoni o‘yin shakliga keltiriladi. Masalan, so‘zlarni to‘g‘ri topgan o‘quvchilar ball yoki mukofot belgilarini olish orqali rag‘batlantiriladi.

Sun‘iy intellekt, gamifikatsiya, interaktiv multimedia va adaptiv ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilini o‘rganish

<sup>4</sup> Dehqanova, G.A. Description of Teaching the Lexical Aspects of English to Primary School Students and Developing Lexical Competencies through Didactic Tools // International Journal of Academic Social Sciences and Studies. – 2023. – Vol. 2, №4. – P. 45–52.

<sup>5</sup> G‘aniyeva M., Mamajonova M. Use of Innovative Methods in Teaching English Language to Primary Classes // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, №4. – P. 45–52. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/83329>

<sup>6</sup> Saidolimova T. The Use of Interactive Methods in Teaching English Vocabulary to Primary School Students // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, №6. – P. 1187–1191. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/110655>

jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv tashkil etishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning leksik boyligini oshirish, ularning dars jarayonidagi faolligini kuchaytirish hamda ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi<sup>[7]</sup>.

Raqamli media vositalari, interaktiv platformalar hamda audiovizual resurslardan foydalanish ingliz tili darslarini samarali tashkil etishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida ushbu texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni dars jarayoniga faol jalb etadi hamda ingliz tilining grammatik tuzilishi va leksik birliklarini tezroq o'zlashtirishga yordam beradi<sup>[8]</sup>.

Masalan, audiovizual materiallardan foydalanish kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ayniqsa samarali hisoblanadi. Ingliz tilidagi qisqa videoroliklar, multfilmlar yoki animatsiyalar orqali o'quvchilar yangi so'zlarni tabiiy nutq kontekstida eshitadi va ularning ma'nosini osonroq anglaydi. Masalan, "colors", "animals" yoki "daily activities" kabi mavzularni o'rganishda video materiallar orqali berilgan tasvirlar va nutq namunalari o'quvchilarning lug'at boyligini rivojlantirishga yordam beradi.

## XULOSA

Kichik yoshdagi o'quvchilarda ingliz tilidagi leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonida innovatsion didaktik vositalardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va yoshga mos idrok qilish imkoniyatlari hisobga olingan holda tashkil etilgan interaktiv mashg'ulotlar, ko'rgazmali materiallar va multimedia resurslari yangi leksik birliklarni o'zlashtirish jarayonini ancha soddalashtiradi. Masalan, rasmi kartochkalar orqali berilgan yangi so'zlar o'quvchilar tomonidan tezroq eslab qolinadi, qisqa multfilmlar va audiovizual materiallar esa ularning talaffuz va tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bunday yondashuv o'quvchilarga nafaqat yangi so'zlarni yodlash, balki ularni real hayotiy va kommunikativ vaziyatlarda to'g'ri qo'llash imkonini ham beradi.

Ingliz tilini o'qitishda innovatsion didaktik vositalardan foydalanish o'quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish hamda tilni erkin va samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, raqamli ta'lim platformalari va adaptiv interaktiv mashqlar

<sup>7</sup> Usmonaliyeva M. Teaching English Language to Primary Students Using Innovation Technologies // Web Journal of Education. – 2024. – Vol. 6, №2. – P. 101–110. URL: <https://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/3977>

<sup>8</sup> Eshboyeva Sh. Ingliz tilini o'qitishda mediatexnologiya vositalarini tadbiq qilishning optimal shakl va usullari // Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal. – 2024. – №4. – P. 55–63. URL: <https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/2663>

yordamida o‘quvchilar individual sur‘atda o‘rganadi, loyiha asosidagi mashg‘ulotlar esa ularning mustaqil nutq va taqdimot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Akbarova, D. R. (2025). Musiqa terapiyasining ta'lim va tarbiya berish jarayonlarida tutgan o'rni. Ta'lim va taraqqiyot ilmiy-uslubiy jurnali, 2-son, 131-bet. Namangan: NamDPI
2. Madrahimova Sh.R. Leksik kompetensiya va uni rivojlantirish usullari (xorijiy tillarni o‘rganish misolida) // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2024. – Vol. 4, №8. – B. 303.
3. Saydaliyeva M.A. Ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish mazmunining metodik tahlili // NamDU Ilmiy axborotnomasi 2-son. -2025.- 718-722.
4. Dehqanova, G.A. Description of Teaching the Lexical Aspects of English to Primary School Students and Developing Lexical Competencies through Didactic Tools // International Journal of Academic Social Sciences and Studies. – 2023. – Vol. 2, №4. – P. 45–52.
5. G‘aniyeva M., Mamajonova M. Use of Innovative Methods in Teaching English Language to Primary Classes // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, №4. – P. 45–52. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/83329>
6. Saidolimova T. The Use of Interactive Methods in Teaching English Vocabulary to Primary School Students // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, №6. – P. 1187–1191. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/110655>
7. Mirakhmedova S.E. Innovative Ways of Teaching English Vocabulary // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – Vol. 5, №3. – P. 22–30. URL: <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/5070>
8. Usmonaliyeva M. Teaching English Language to Primary Students Using Innovation Technologies // Web Journal of Education. – 2024. – Vol. 6, №2. – P. 101–110. URL: <https://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/3977>
9. Eshboyeva Sh. Ingliz tilini o‘qitishda mediatexnologiya vositalarini tadbiiq qilishning optimal shakl va usullari // Maktabgacha va Maktab Ta‘limi Jurnal. – 2024. – №4. – P. 55–63. URL: <https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/2663>

10. Lutfullayeva U.R., Mirakhmedova S.E. The Importance of Enhancing Students' Vocabulary With the Help of Authentic Materials // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2025. – Vol. 5, №3. – P. 693–696. – URL: <https://www.mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/2979>
11. Azimova, M. M. (2025). Ingliz tili o'rganayotgan o'quvchilarda leksik boylikni oshirishda metodik yondashuvlar va tushunchalar. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 49(1), 169–171. <https://scientific-jl.com/tal/article/view/24878> DOI: <https://10.5281/zenodo.16281963>
12. Dehqanova, G. A. (2024). SAMARALI MULOQOT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 550-555.
13. Azimov, S., Abdumuminova, D. Xorijiy tillarni o'quvchilarga o'rgatishda metodik usul va yondashuvlar hamda o'qituvchining psixologik bilimi. \*Universal xalqaro ilmiy jurnal\*, 1(7), 2024. –B.189-195
14. Yuldashev Og'abek Komiljon o'g'li, Azimov Samandar Murodjon o'g'li. (2025). Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda metodik o'yinlarning ahamiyati. Лучшие интеллектуальные исследования, Vol. 54 No. 1. <https://journalss.org/index.php/luch/article/view/2046>
15. Saydaliyeva, M. A., & Azimov, S. M. (2025, November 18). The effective impact of educational technologies in organizing English language lessons. Образование, наука и инновационные идеи в мире, 81(3). <https://journalss.org/index.php/obr/article/view/5633> <https://doi.org/10.5281/zenodo.17652336>
16. Azimov S. M. The place and significance of the English language worldwide // International Journal of Scientific Researchers.-2024. Vol. 5, Issue 2. – P. 31–35.